

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JALILOV JAVLON ZAFAR O‘G‘LI

**KARBOKSIMETILSELLYULOZA VA KUMUSH NANOZARRALARI
ASOSIDA ANTIBAKTERIAL IMPLANT-PLYONKANING OLINISHI,
XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.05 - Sellyuloza va selluloza-qog‘oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jalilov Javlon Zafar o‘g‘li Karboksimetilsellyuloza va kumush nanozarralari asosida antibakterial implant-plyonkaning olinishi, xossalari va texnologiyasi.....	3
Жалилов Жавлон Зафар ўғли Получение, свойства и технология производства антибактериальных имплант-плёнок на основе карбоксиметилцеллюлозы и наночастиц серебра.....	21
Jalilov Javlon Zafar o‘g‘li Preparation, properties and technology of antibacterial implant-films based on carboxymethylcellulose and silver nanoparticles.....	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	45

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JALILOV JAVLON ZAFAR O‘G‘LI

**KARBOKSIMETILSELLYULOZA VA KUMUSH NANOZARRALARI
ASOSIDA ANTIBAKTERIAL IMPLANT-PLYONKANING OLINISHI,
XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.05 - Sellyuloza va selluloza-qog‘oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5213 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Xaydar Ergashovich

texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Nabiyeva Iroda Abdusamatovna

texnika fanlari doktori, professor

Bekchanov Davronbek Jumazarovich

kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T/36/01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 5-dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel: (+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-60, ye-mail: polymer@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (47 raqam bilan ro‘yxatga olingan) (100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel: (+99871) 241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 22-noyabr kuni tarqatiladi.

(2025 yil 22-noyabrdagi 3 raqamli reestr bayonnomasi.)



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kuyish va yiringli jarohatlar bilan aziyat chekadiganlar soni kun sayin ortib borayotganligi sababli ularni davolash uchun sellyuloza va uning hosilalari asosida tarkibida nanoo'lchamli metall zarralari tutgan polimer tarkibli original dori vositalari va biomateriallarning yangi avlodlarini sintez qilish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo aholisining taxminan har 100 000 tasidan 1500 tasi kuyishdan jarohatlanishi hisobiga 40% gospitallashtiriladi hamda ulardan 14% holatda o'lim kuzatiladi. Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan kuyish va yiringli jarohatlarni davolovchi dori vositalari va biomateriallarni yaratish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda.

Respublikamizda ham kuyish va yiringli jarohatlarni davolashga yo'naltirilgan sellyuloza va uning hosilalari asosida zararsiz, samarali, arzon, import o'rnini bosuvchi, eksportbob polimer tarkibli original dori vositalari, biomateriallarning yangi avlodlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mahalliy xomashyolar asosida dori vositalari, biomateriallar yaratishni rivojlantirishda ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil etish va mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, polimer tarkibli original yangi dori shakllarini yaratish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"¹ da va 2030 – yilgacha bo'lgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida² «...mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish...» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida mahalliy tabiiy polimerlar sellyuloza va uning hosilalari asosida kuyish va yiringli jarohatlarni davolovchi polimer tarkibli original dori vositalari va biomateriallarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'nalishida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-yanvardagi PQ-13-sonli "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 23-yanvardagi PQ-3489-sonli "Dori vositalari va tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish va importini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2022-yil 26-oktyabrdagi PQ-411-sonli "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida turli usullarda barqaror kumush nanozarralarini (Ag NZ) sintez qilish va ularning o'lcham va shakllarini boshqarish orqali preparatlarda yangi terapevtik va boshqa xossalarni berish, ular asosida olinadigan tibbiy preparatlar va biomateriallarning fizik-kimyoviy hamda tibbiy-biologik xossalarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar keng olib borilmoqda. Chop etilgan ilmiy nashrlarning ko'pchiligi sintetik polimerlar, jumladan, polietilenglikol (PEG), polivinilspirt (PVS), polivinilpirrolidon (PVP) polimer matritsalarida barqarorlashtirilgan Ag NZni sintez qilishga bag'ishlangan. Tabiiy polimerlar, mikrokrstallik selluloza (MKS), xitozan (XZ), selluloza, glyukomannan matritsalarida turli o'lcham va shaklli barqaror Ag NZni sintez qilish, hamda ular asosida polimer tarkibli tibbiy preparatlar va biomateriallar olish va ularning xossalarini o'rganish bo'yicha J. Gouhua, J. Hu, J. Song, Y. Chen, M. Karimi, F. Alimohammadi, B. Changmai, S. L. Rokhum, Y. K. Mohanta, A. Cowin, S. Kundu, D. Huitink, V. Y. Agabekov, A. A. Rogachev, P. M. Bichkovskiy, G. V. Beznoussenko, A. A. Mironov va bir qator ilmiy maktablar hissa qo'shib kelmoqda.

Respublikamizda tabiiy va sintetik polimerlar asosida tibbiy preparatlar va biomateriallar yaratishning rivojlanishiga akademiklar H. U. Usmonov, S. Sh. Rashidova, G. Raxmonberdiyev, Sh. Sh. Sagdullayev, A. S. Turayev, professorlar Sh. N. Najmutdinov, U. N. Musayev, A. A. Sarimsoqov, M. G. Muxammadiyev, A. D. Fayazov va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda selluloza va uning hosilalari matritsalarida barqaror Ag NZni sintez qilish va ular asosida kuyish jarohatlarini qisqa vaqt davomida davolovchi implant-plyonka shaklidagi preparatlar yaratish, hamda ularning fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, shu bilan birga polimer matritsasida Ag NZning bir xil taqsimlanishi, o'lcham va shakllarini boshqarish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada o'rganilmagan. Bu o'z navbatida ushbu yo'nalishda chuqur fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, oldindan rejalashtirilgan tarkibida Ag NZ tutgan natriy-karboksimetilsellyuloza (Na-KMS)/ozuqa muhiti 199 asosida bioparchalanuvchan polimer implant-plyonkalarni olish, ularning fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish hamda ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish istiqbollari yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan "Turli xil kuyishlarni davolash uchun yangi avlod nanopolimerlarini ishlab chiqish" (2019-2022-y.) va "Organizm

nanozarralarning istiqboli, tibbiyot maqsadlari uchun nanostrukturali polimer shaklli dori vositalari va tibbiy buyumlarni yaratishning fundamental asoslari” (2020-2025-y.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarkibida barqaror kumush nanozarrachalari tutgan karboksimetilsellyuloza/ozuqa muhiti 199 asosida polimer tarkibli kuyish jarohatlarini davolovchi implant-plyonka olish, uning tuzilishi, fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini aniqlash hamda ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

Na-KMS eritmaları asosida plyonka namunalari olish va ularni plastifikatsiyalash imkoniyatlarini tadqiq etish hamda fizik-kimyoviy, fizik-mexanik xossalarini o‘rganish;

Na-KMS/ozuqa muhiti 199 eritmalarida turli o‘lcham va shaklli Ag NZ shakllantirish va ularning tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish;

tarkibida turli o‘lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 eritmalaridan turli qalinlikdagi implant-plyonkalar olishning optimal sharoitlarini aniqlash va ularning fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish;

Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarining tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish orqali ularda “tarkib-tuzilish-xossa” o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash;

Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalar olishning prinsipial va ishlab chiqarish texnologik sxemasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektlari turli almashinish darajasi (AD) va polimerlanish darajasi (PD) ega tozalangan Na-KMS, kumush nanozarralari, gidrogel, implant-plyonka namunalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Na-KMSning suvli eritmalarida kumush kationlarini ultrabinafsha (UB) nurlar ta’sirida fotokimyoviy qaytarish usuli orqali turli o‘lcham va shaklli Ag NZ shakllantirish va ularni polimer matritsa bilan barqarorlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish. Tarkibida turli o‘lcham va shaklga ega Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonka nanokompozitlarni olish va ularning fizik-kimyoviy va tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish, ularning prinsipial sxemasi va ishlab chiqarish texnologik sxemalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda atom kuchlanishli mikroskop (AKM), IQ-Fure va UB-spektroskopiya, skaner elektron mikroskopiya (SEM), rentgenostrukturaviy tahlil, yorug‘lik nurlarining dinamik tarqalishi (DLS), reologiya, sorbsion xossalari, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik analiz usullari, hamda tibbiy-biologik, mikrobiologik tadqiqotlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor tarkibida turli o‘lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalar olishning optimal sharoitlari hamda ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik xossalari aniqlandi;

ilk bor kuyish jarohatlarini davolovchi Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida

implant-plyonkalar tarkibida shakllantirilgan Ag NZning o'lchami, shakli, miqdori hamda ularning antibakterial xossalari orasidagi "tarkib-tuzilish-xossa" korelyatsion bog'liqlik aniqlandi;

ilk bor tarkibida o'lchamlari 27-70 nm Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan polimer implant-plyonkalarining yuqori antibakterial faolligi aniqlandi va ushbu implant-plyonka kuyish jarohatini 14 sutka davomida to'liq regeneratsiyalashi isbotlandi;

kuyish jarohatlarini davolovchi tarkibida turli o'lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalar olishning prinsipial sxemasi va ishlab chiqarish texnologik sxemasi yaratildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosidagi eritmalardan kuyish jarohatlarini davolovchi implant-plyonka olishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

kuyish jarohatlarini davolovchi tarkibida o'lchamlari 27-70 nm bo'lgan Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalar olish usuli va ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan va implant-plyonka olishning qaytaruvchanligiga erishilgan hamda ushbu texnologiya asosida tibbiy-biologik tadqiqotlar uchun optimal tarkibli 5 ta seriyadagi implant-plyonka namunalari olingan;

tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosidagi kuyish jarohatlarini davolovchi bioparchalanuvchan implant-plyonkaning tibbiy-biologik xossalari O'zR FA Mikrobiologiya instituti va O'zR SSV Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazini kombustsiologiya bo'limida tajriba hayvonlarida o'rganilgan va ijobiy xulosalar olingan.

Tarkibida Ag NZ tutgan implant-plyonkalarni ishlab chiqarish uchun me'yoriy-texnik hujjatlar (laboratoriya reglament, vaqtinchalik farmakopeya maqola, qo'llash yo'riqnoma, tibbiy-biologik tadqiqot natijalari hisoboti, loyihalari) shakllantirilgan va tasdiqlangan hamda implant-plyonkalarining 5 ta seriyasi ishlab chiqarildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kuyish jarohatlarini davolovchi implant-plyonkalarining olinishi va ularning fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xossalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar, takroriy o'lchashlar va nazariy hisob-kitoblar yordamida olindi. Tarkibida turli o'lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan bioparchalanuvchan implant-plyonka namunalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi "Kombustsiologiya" bo'limida klinik oldi tibbiy-biologik tadqiqotlari olib borilgan va ijobiy xulosalar olingan. Olingan ilmiy va amaliy natijalar Respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda va anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tarkibida turli o'lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida kuyish jarohatlarini davolovchi implant-plyonkalarining olish imkoniyatlari o'rganilgan va

olingan implant-plyonkalarining tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy va tibbiy-biologik xossalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan antibakterial xossaga ega va kuyish jarohatlarini davolovchi tarkibida turli o'lchamli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida bioparchalanuvchan implant-plyonka olish usuli va ishlab chiqarish texnologik sxemasi yaratilgan va tasdiqlangan. Mazkur texnologiya asosida kuyish jarohatlarini davolovchi implant-plyonkalar olishda qaytaruvchanlikka erishilgan va implant-plyonkalarni ishlab chiqarish uchun me'yoriy-texnik hujjatlar loyihalari shakllantirilgan. Mazkur tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish kuyish jarohatlarini davolash uchun polimer tarkibli implant-plyonka shaklidagi original biomateriallarni ishlab chiqarishga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Karboksimetilsellyuloza va kumush nanozarralari asosida implant-plyonkaning olinishi, xossalari va texnologiyasi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kuyish jarohatlarini davolashga yo'naltirilgan implant-plyonka shakldagi biomaterial olish va fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish usullari FA-2019-34 "Turli xil kuyishlarni davolash uchun yangi avlod nanopolymerlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada qo'llanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zR SSV Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining 2025-yil 25-fevraldagi 02-05/464-sonli dalolatnomasi). Natijada ishlab chiqilgan implant-plyonka kuyish jarohatlarini davolash muddatini qisqartirishga olib kelgan;

tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalar BRFFI T23UZB-059 "Kompleks xossalarga ega tibbiy materiallarni olish uchun modifikatsiyalangan uglerod matolari va sellyuloza hosilalarini yaratishning fundamental tamoyillarini ishlab chiqish" Belorusiya Milliy Fanlar akademiyasi Yangi materiallar kimyosi institutining ilmiy-amaliy loyihasida kuyish jarohatlarini davolashga yo'naltirilgan implant-plyonka shakldagi biomaterial olishda qo'llanilgan (BMFA YMK institutining 2025-yil 17-apreldagi № 224-01-33/136-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yuqori antibakterial va kompleks xossaga ega modifikatsiyalangan noto'qima biomaterial olishga erishilgan;

Na-KMS va Ag NZ asosida olingan plyonka namunalarning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va antibakterial xossalari bo'yicha olingan natijalardan yuqori impakt faktorli (IF) 18 ta xorijiy ilmiy jurnallarda yangi materiallar yaratish va fizik-mexanik, fizik-kimyoviy hamda antibakterial xossalarini tahlil qilish uchun foydalanilgan (International Wound Journal, 2022, V.19, IF= 2.6, Wiley; Cellulose, 2022, V.29, № 7, IF= 5.3, Springer; Journal of Physics and Chemistry of Solids, 2022, V.170, IF= 4.3, Elsevier; International Journal of Molecular Sciences, 2022, V.23, IF=4.9, MDPI; International Journal of Biological Macromolecules, 2023, V.253, IF=7.7, Elsevier; Applied Sciences, 2023, V.14, № 1, IF=2.7, MDPI; Polymers for Advanced Technologies, 2024, V.35, № 5, IF=2.5, Wiley; Colloids

and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects, 2024, V.692, IF=4.9, Elsevier; Materials Science and Engineering: B, 2024, V.304, IF=3.9, Elsevier; Journal of Tissue Engineering and Regenerative Medicine, 2024, V.1, IF=2.6, Wiley; International Journal of Biological Macromolecules, 2025, V.301, IF=7.7, Elsevier; Next Nanotechnology, 2025, V.7, IF=2.9, Elsevier; ACS nano, 2025, V.19, IF=4.5, ACS Publications; ACS Applied Nano Materials, 2025, V.8, IF=5.5, ACS Publications; Journal of Applied Polymer Science, 2025, V.142, IF=2.8, Wiley; Polymer Bulletin, 2025, V.82, IF=4, Springer; BioNanoScience, 2025, V.15, IF=3.5, Springer; ChemistrySelect, 2025, V. 10, IF=2, Wiley). Natijada polimer matritsalarda Ag NZni shakllantirish qonuniyatlari va ularning o'lcham, shaklini boshqarish hamda ular asosida yuqori antibakterial xossaga ega preparatlar va biomateriallar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya bo'yicha olingan asosiy natijalar 14 ta xalqaro va 13 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'ruzalar bilan ishtirok etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektlari va predmetlari belgilangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kuyish va yiringli jarohatlarni davolovchi barqaror Ag NZ asosida antibakterial, bioparchalanuvchan polimer preparatlar va biomateriallarni olinishi, tuzilishi, fizik-kimyoviy va tibbiy-biologik xossalari**" nomli **birinchi bobida** dori vositalari va biomateriallarni yaratishda turli PD va AD ega Na-KMS namunalarning farmatsevtika va tibbiyot amaliyotida polimer matritsa sifatida qo'llanilishi, turli polimer matritsalarda barqaror Ag NZning sintez qilish usullari, ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalari va ishlab chiqarish texnologiyalari hamda qo'llanilishi bo'yicha tahliliga bag'ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot obyekti va usullari**” nomli ikkinchi bobida dissertatsiya ishini bajarish uchun dastlabki reagentlar va ularning xossalari, tadqiqot obyektlari, kuyish jarohatlarini davolovchi tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka olish metodikalari, sharoitlari hamda fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish usullari bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tarkibida turli o’lchamga ega barqaror Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida polimer implant-plyonkalarining olinishi va fizik-kimyoviy xossalari**” nomli uchinchi bobida kuyish jarohatlarini davolovchi bioparchalanuvchan, antibakterial implant-plyonkalar olish uchun dastlabki Na-KMS namunalari tanlash, kumush kationlari orasidagi reaksiya sharoitlarini aniqlash va Na-KMS eritmalarida kumush kationlarini fotokimyoviy qaytarishning optimal vaqtlarini belgilash, tozalangan Na-KMS eritmalarida turli o’lcham va shaklli Ag NZni sintez qilish sharoitlarini aniqlash, AgNO₃ tuzining optimal konsentratsiyalarini tanlash hamda tarkibida Ag NZ tutgan tozalangan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalarining olinishi, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik, reologik, sorbsion xossalari bo’yicha olingan natijalar va ularning muhokamalari keltirilgan.

Dastlab tanlab olingan AD=0,78-0,98 va PD=650-950 bo’lgan tozalangan Na-KMS namunalarning erigan fraksiyalar miqdori va ularning AD va PD qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Na-KMS eritmasining erigan va gel fraksiyalar miqdori va ularning PD va AD qiymatlari.


№	Na-KMS namunalari ko’rsatkichlari		Sentrifugadan keyin Na-KMS namunalari miqdori va tarkib ko’rsatkichlari					
	AD	PD	Erigan fraksiya, %	AD	PD	Gel fraksiya, %	AD	PD
1	0,78	650	88,3	0,82	680	5,2	0,13	900
2	0,80	710	95,2	0,86	750	4,8	0,15	1000
3	0,97	900	98,5	0,98	950	1,5	0,17	1200

Tadqiqotlar natijasida Na-KMSning AD=0,98 va PD=950 bo’lgan namunasida erigan fraksiyaning miqdori hamda molekulyar massasining yuqoriligi sababli implant-plyonkalar olish imkoniyatiga egaligi uchun keyingi tadqiqotlar uchun tanlab olindi.

Dastlab AD=0,98 va PD=950 bo’lgan Na-KMS namunasining 2%-li suvli eritmasiga 0.1 M AgNO₃ eritmasidan har xil miqdorda qo’shilganda Ag⁺KMS⁻ polimermetallokompleks gidrogeli hosil bo’lishi aniqlandi. Hosil bo’lgan Ag⁺KMS⁻ gidrogelidagi Ag⁺ fotokimyoviy qaytarish orqali tarkibida turli o’lcham va shaklli Ag NZ sintez qilindi.

Sintetik ozuqa muhiti 199, asosan, aminokislotalar, vitaminlar, tuzlar, glyukoza, nuklein va askorbin kislotalaridan tashkil topgan bo‘lib u hujayralarning tirik qolishi va dastlabki o‘sishi uchun ozuqa hisoblanadi hamda kombustiologiyada teri to‘qimalarini regeneratsiyasida keng qo‘llaniladi. Tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS gidrogeliga teri to‘qimalarini regeneratsiya qiluvchi ozuqa muhiti 199 eritmasidan turli miqdorda qo‘shildi va 20 minut ultratovushli (UT) despergatorida ishlov berilganda bir jinsli gidrogel hosil bo‘ldi. Tadqiqot natijasida tarkibida o‘lchamlari kichik va bir jinsli bo‘lgan 27-70 nm o‘lchamli sharsimon shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonka olishning ortimal sharoitlari quyidagicha ekanligi aniqlandi: AD-0,98 va PD-950 bo‘lgan tozalangan Na-KMS suvli eritmasining konsentratsiyasi 2%, AgNO₃ miqdori 0,025%, glitserin miqdori 0,4%, ozuqa muhiti 199 miqdori 0,05%, harorat 25±5°C, fotoliz vaqti 30 minut, ultratovush vaqti 20 minut.

Na-KMSning AD-0,98 va PD-950 bo‘lgan namunasidan 2%-li eritma tayyorlandi va AgNO₃ eritmasidan turli konsentratsiyada qo‘shilganda eritmada Na⁺ ionlari Ag⁺ kationlari bilan almashishi natijasida Ag⁺KMS⁻ polimermetallokompleks gidrogeli olindi. Hosil bo‘lgan Ag⁺KMS⁻ gidrogeli UB nurlari yordamida Mott-Gurne nazariyasiga binoan 30 minut davomida fotoliz ta‘sirida kumush kationlari kumush atomlarigacha qaytarilishi natijasida nanozarralar shakllanadi va eritma och sariq rangdan jigarranga o‘tadi (1-rasm).




1-rasm. Na-KMS eritmalaridagi Ag⁺ning fotoliz ta‘sirida kumush atomlariga (Ag⁰) qaytarilishi va Ag NZ shakllanishi hamda taklif etilgan barqarorlashishning mexanizmi.

Gidrogelda shakllangan musbat zaryadlangan Ag NZ sirt yuzasini Na-KMS makromolekularidagi manfiy zaryadlangan karboksil guruhlar (-COO^-) o‘rab oladi va zaryadlangan qobiqni hosil qilishi bilan bir xil o‘lchamdagi Ag NZning shakllanishini ta‘minlaydi hamda nanozarralar sirt yuzasidagi manfiy zaryadlangan qobiqlar bir-birini turtishi hisobiga ularning aglomeratsiya jarayonini oldini olishi aniqlandi.

Na-KMS, Ag⁺KMS⁻, Ag NZ/KMS, Ag NZ/KMS/ozuqa muhiti 199 namunalari makromolekularidagi funksional guruhlarni aniqlash, hamda kimyoviy bog‘larni baholash uchun IQ-Fure spektroskopiya tadqiqotlar o‘tkazildi (2- rasm).

IQ-Fure spektroskopiya tadqiqot natijalariga ko‘ra, Na-KMS plyonkasida -COO^- guruhlari uchun xos bo‘lgan yutilish spektrlari 1601 sm^{-1} sohalarda kuzatildi (2-rasm, *a-chiziq*).




2-rasm. IK-Fure spektroskopik tahlil natijalari.
a. Na-KMS plyonka;
b. Tarkibida 0,025% Ag⁺ tutgan Ag⁺KMS⁻ plyonka;
c. Tarkibida 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS implant-plyonka;
d. Tarkibida 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 implant-plyonkasi.

Tarkibida Ag⁺ tutgan Ag⁺KMS⁻ plyonkasi dastlabki Na-KMS plyonkasi bilan solishtirilganda yutilish spektri 1601 sm⁻¹ sohadan 1586 sm⁻¹ sohalargacha siljishi -COO⁻ guruhlari va Ag⁺ o'rtasida ion-kordinatsion bog'lanishlar vujudga kelganligini ko'rsatadi (2-rasm, *b*-chiziqlar).


Fotoliz ta'sirida qaytarilgan Ag NZ/KMS plyonkasi spektrlarida 1592 sm⁻¹ sohaga piklarning kuzatilishi -COO⁻ guruhlari va Ag NZ o'rtasida ion-koordinatsion bog'lanishlar bilan bog'lanib, qobiq hosil qilishini izohlaydi (2-rasm, *c*-chiziq). Bundan tashqari tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS gidrogeliga ozuqa muhiti 199 ta'siri orqali olingan implant-plyonkalar dastlabki Ag NZ/KMS plyonkalarga solishtirilganda ularning spektrlarida o'zgarishlar kuzatilmaganligi funksional guruhlarda o'zgarish bo'lmaganligini ifodalaydi (2-rasm, *d*-chiziq).

Tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka namunalaridagi Ag NZning o'lchami, shakli va morfologiyasini o'rganish maqsadida AKM tadqiqotlar olib borildi (3-rasmda).


a. Tarkibida 0,0025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka, (Ag NZ o'lchami 10-73 nm)



b. Tarkibida 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka, (Ag NZ o'lchami 22-80 nm)



c. Tarkibida 0,25% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka, (Ag NZ o'lchami 60-240 nm)




Fotoliz vaqti 30 minut, UT-dispergatsiya vaqti 20 minut.

3-rasm. Tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarining AKM tadqiqot natijalari.

AKM natijalaridagi 3-rasmdan ko‘rinadiki, Na-KMS/ozuqa muhiti 199 eritmasida 0,0025%-gacha Ag NZ tutgan implant-plyonkada o‘lchamlari 10-73 nm bo‘lgan sharsimon shaklli polidispers Ag NZ hosil bo‘lgan (3-rasm, *a-gistogramma*). Implant-plyonkada Ag NZning miqdori 0,025%-gacha oshirilganda o‘lchamlari 22-80 nm bo‘lgan sharsimon shaklli monodispers Ag NZ shakllangan (3-rasm, *b-gistogramma*). Ag NZning miqdori implant-plyonka tarkibida 0,25%-gacha oshirilganda o‘lchamlari 60-240 nm bo‘lgan shaksiz bo‘lgan polidispers zarralar shakllanganligi AKM tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi (3-rasm, *c-gistogramma*).

Na-KMS/ozuqa muhiti 199 eritmasi asosida olingan implant-plyonkalarda shakllantirilgan Ag NZning o‘lchamlari va miqdori SEM tadqiqotlari orqali aniqlandi va olingan natijalar 4-rasmda keltirildi.




a. 0,0025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka. Ag NZning o‘lchamlari 10-73 nm; *b.* 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka. Ag NZning o‘lchamlari 27-70 nm; *c.* 0,25% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka. Ag NZning o‘lchamlari 60-240 nm.

4-rasm. Tarkibida turli o‘lcham va shaklli Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosidagi implant-plyonkalarning SEM tadqiqot natijalari.

Implant-plyonka tarkibida Ag NZning konsentratsiyasi 0,0025% va 0,025% bo‘lganda mos ravishda 10-73 nm (4-rasm, *a*) va 27-70 nm (4-rasm, *b*) bo‘lgan nisbatan monodispers Ag NZ hosil bo‘lgan. Implant-plyonka tarkibida Ag NZning konsentratsiyasi 0,25%-gacha oshirilganda o‘lchamlari 60-240 nm bo‘lgan shaksiz polidispers Ag NZ hosil bo‘lganligi kuzatildi (4-rasm, *c*). Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarda shakllangan Ag NZ o‘lcham va shakllarining o‘zgarishi dastlabki reaksiyaga kirishayotgan AgNO₃, Na-KMS konsentratsiyalariga va reaksiya sharoitlariga bogliqligi aniqlandi.

Na-KMSning AD=0,98 va PD=950 bo‘lgan 2%-li eritmasidan olingan implant-plyonkalarda shakllangan barqaror Ag NZning kristallik singoniyasini va o‘lchamlarini aniqlash uchun rentgenodifraktogramma tadqiqotlari olib borildi (5-rasm).



5-rasm. Tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarining rentgenodifraktogramma tahlil natijalari

a. Na-KMS; b. Ag^+KMS^- ; c. tarkibida AgNZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka. (Na-KMS va $AgNO_3$ eritmalarining hajm nisbatlari 100:2.4 ml 0.1 M).

Rentgenodifraktogramma tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, tozalangan Na-KMS va Ag^+KMS^- va tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarda $2\theta=23^\circ$ gradusda amorf tuzilishga ega difraksiyalar amorf galoni hosil qilgan (5-rasm, a va b) va namunalar amorf tuzilishga ega Na-KMS uchun xosdir. Tarkibida 0,025% Ag^+ kationi tutgan Ag^+KMS^- plyonkasida kumush elementi uchun xos bo‘lgan difraksiyalar kuzatilmadi (5-rasm, b).

Ag^+KMS^- /ozuqa muhiti 199 gidrogeli 30 minut fotokimyoviy qaytarilganidan so‘ng olingan tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 tarkibli implant-plyonkada kubik kristall singoniyasiga ega difraksiya burchaklari $2\theta \approx 37.96^\circ, 44.2^\circ, 64.3^\circ$ va 77.48° graduslarda o‘lchamlari 18.5; 29.7; 43.9 va 59.3 nm bo‘lgan Ag NZlariga xos bo‘lgan (111), (200), (220) va (311) kristal reflekslari aniqlandi (5-rasm, c).

Dissertatsiyaning “**Tarkibida Ag NZ tutgan NaKMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan polimer implant-plyonkalarining tibbiy-biologik xossalari va ularning ishlab chiqarish texnologiyasi**” nomli to‘rtinchi bobida tarkibida barqarorlashtirilgan Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 eritmalarini asosida polimer tarkibli implant-plyonkalarining tibbiy-biologik xossalarini aniqlash va antibakterial xossaga ega implant-plyonka olishning prinsipl sxemasi va ishlab chiqarish texnologik sxemalarini ishlab chiqish, texnologik qurilmalarning texnik ko‘rsatkichlari va hisoblangan texnik-iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobda tarkibida Ag^+ va Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosidagi implant-plyonkalar *Staphylococcus epidermidis* va *Candida albicans* shtamlariga nisbatan antibakterial faolligi o‘rganilganda o‘lchamlari 27-70 nm bo‘lgan sharsimon shaklli Ag NZ tutgan implant-plyonka namunasi yuqori bakteritsid faollikni namoyon etganligi aniqlandi (2-jadval).

Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosidagi implant-plyonka tarkibida o‘lchamlari 27-70 nm bo‘lgan sharsimon shaklli Ag NZning sirt yuzasi yuqoriligi va implant-plyonka matritsasida monodispersligi hamda kichik zarralarning soni nisbatan yuqoriligi sababli bakteriya hujayrasi devorlaridan o‘tishi natijasida uning

tuzilishini o'zgartirishi va kislorod tanqisligiga olib kelishi hisobiga *Staphylococcus epidermidis* va *Candida albicans* shtammlariga nisbatan yuqori bakteritsid faollikni namoyon qilgan bo'lishi mumkin (2-jadval, 3-namuna).

2-jadval

Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka namunasida shakllantirilgan barqaror Ag NZ miqdori, o'lchami va shakli bo'yicha antibakterial faollik natijalari.

№	Namunalar	Ag NZ o'lcham va shakllari, nm	Shartli-patogen mikroorganizmlar	
			<i>Staphylococcus epidermidis</i>	<i>Candida albicans</i>
1	Nazorat–Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka	-	5×10^{12} *KHB/ml	5×10^{12} KHB/ml
2	Ag NZ/KMS/ozuqa muhiti 199 implant-plyonka, [Ag NZ]=0,0025%	10-73 (sharsimon)	1×10^{10} KHB/ml	1×10^5 KHB/ml
3	Ag NZ/KMS/ozuqa muhiti 199 implant-plyonka, [Ag NZ]=0,025%	27-70 (sharsimon)	Mavjud emas	Mavjud emas
4	Ag NZ/KMS/ozuqa muhiti 199 implant-plyonka, [Ag NZ]=0,25%	l= 60-240 d= 25-45 (ignasimon)	2×10^8 KHB/ml	1×10^4 KHB/ml

*Kollona hosil qiluvchi birlik bir millilitrda.



Tadqiqotlarning keyingi qismida tarkibida o'lchamlari 27-70 nm bo'lgan Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonkalarining tajriba kalamushlarda kuyish jarohatlarini davolash *in vivo* tadqiqotlar orqali "Levomekol" mazi (Nijfarm, AJ, Rossiya) bilan solishtirish orqali tadqiq etildi (6-rasm).

a. "Levomekol" 40 gr maz qo'llanilgan (Nijfarm, AJ, Rossiya);

b. 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS asosida olingan implant-plyonka qo'llanilgan;

c. 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan implant-plyonka qo'llanilgan


Davolashdan oldin 1 sutka 4 sutka 7 sutka 9 sutka 14 sutka



6-rasm. Tajriba hayvonlarida kuyish jarohatlarini davolashda tarkibida o'lchamlari 27-70 nm bo'lgan 0,025% Ag NZ tutgan implant-plyonkani qo'llashdagi natijalar.

Keltirilgan 6-rasmdan ko'rinadiki, tarkibida o'lchamlari 27-70 nm bo'lgan 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS asosida olingan implant-plyonka qo'llanilganda 14-sutkada 82-88% jarohatlangan teri to'qimalari qayta tiklanganligi va terida yangi tuklar o'sganligi aniqlandi (6-rasm, b). "Levomekol" mazi qo'llashda implant-plyonka bilan solishtirilganda 14-sutka davomida granulyatsion to'qimalar qayta tiklanganligi va kuyish jarohati 80-86% sog'ayganligi aniqlandi (6-rasm, a). Tarkibida o'lchamlari 27-70 nm bo'lgan 0,025% Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida olingan bioparchalanuvchan, bakteritsid xossaga ega implant-plyonkalar qo'llash 14-sutka davomida kuygan jarohatlarni regeneratsiya jarayonini faollashtirib, ikkilamchi yallig'lanish xavfini pasaytirib, qayta tiklanish muddati "Levomekol" maziga nisbatan qisqarganligi aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida olingan natijalarga asosan tarkibida Ag NZ tutgan Na-KMS/ozuqa muhiti 199 asosida implant-plyonkalar olishning prinsipial sxema va ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqildi (7-rasm).



1. Texnik tarozi (0-200 kg); 2. Tozalangan Na-KMS AD=0,98; PD=950 uchun varonka;
3. Distillangan suv uchun distillyator; 4. AgNO₃ eritmasi uchun mernik; 5. Sintez uchun reaktor;
6. Filtr; 7. Nasos; 8. Fotokimyoviy qaytaruvchi nostandart qurilma; 9. Glitserin uchun mernik;
10. Ozuqa muhiti 199 uchun mernik; 11. UT-dispergator qurilma; 12. Plyonka quritish uskunasi;
13. Standart o'lchamli plyonka kesish uskunasi; 14. Sterillash uskunasi;
15. Implant-plyonkani qadoqlash; 16. Tayyor mahsulot

7-rasm. Implant-plyonka ishlab chiqarishning texnologik sxemasi.

